



QATAG'ON QURBONLARI VA MILLIY UYG'ONISH

Kironaliyeva Mehrubon Kironali qizi

SARBON UNIVERSITETI

“Yurisprudensiya” yo'nalishining

2-bosqich 020-25 YUz talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston tarixining eng murakkab va fojiali davrlaridan biri bo'lgan qatag'on siyosati hamda uning milliy ziyolilar hayoti va faoliyatiga ta'siri yoritiladi. Qatag'on siyosati natijasida ilm-fan, adabiyot, ma'rifat va davlat boshqaruvi sohalarida faoliyat yuritgan ko'plab insonlar ta'qib qilingan, qamoqqa olingan, surgun qilingan yoki qatl etilgan. Maqolada qatag'on qurbonlari faoliyatining milliy uyg'onish jarayonidagi o'rni, ularning xalqning ma'rifiy va madaniy rivojiga qo'shgan hissasi hamda tarixiy merosi tahlil qilinadi. Shuningdek, qatag'on siyosatining jamiyat hayotiga ta'siri, tarixiy xotirani tiklash va qatag'on qurbonlari nomini abadiylashtirish masalalariga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: qatag'on, qatag'on qurbonlari, milliy uyg'onish, jadidchilik, milliy ziyolilar, ma'rifat, tarixiy xotira, siyosiy ta'qib, milliy meros.

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещается политика репрессий, являвшаяся одним из наиболее сложных и трагических периодов в истории Узбекистана, а также её воздействие на жизнь и деятельность национальной интеллигенции. Кроме того, анализируется роль деятельности жертв репрессий в процессе национального пробуждения, их вклад в просветительское и культурное развитие народа, а также их историческое наследие. Особое внимание уделяется последствиям политики репрессий для общества, вопросам восстановления исторической памяти и увековечения имён жертв репрессий.

Ключевые слова: политические репрессии, жертвы репрессий, национальное пробуждение, джадидизм, национальная интеллигенция, просвещение, историческая память, политическое преследование, национальное наследие.

ANNOTATION

This article examines the policy of repression, which represents one of the most complex and tragic periods in the history of Uzbekistan, and its impact on the lives and activities of the national intelligentsia. As a result of the policy of repression, many individuals who worked in the fields of science, literature, education, and public administration were persecuted, imprisoned, exiled, or executed. The article analyzes the role of the activities of the victims of repression in the process of national awakening, their contribution to the educational and cultural development of the Uzbek people, as well as their historical legacy. It also focuses on the consequences of the policy of repression for society.



the restoration of historical memory, and the commemoration of the victims of repression. The article emphasizes the importance of studying historical events objectively and drawing appropriate conclusions from them for the younger generation.

Keywords: repression, victims of repression, national awakening, Jadidism, national intelligentsia, enlightenment, historical memory, political persecution, national heritage.

Har bir xalqning tarixida uning bugungi taraqqiyotga ta'sir ko'rsatgan muhim va murakkab davrlar mavjud. O'zbekiston tarixida esa XX asrning siyosiy qatag'onlar davri ana shunday fojiali davrlardan biridir. Ushbu davrni o'rganish nafaqat tarixiy voqealarni bilish, balki millatning ilmiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotiga xizmat qilgan insonlarning insonlarning hayoti va faoliyatini anlash uchun ham muhimdir. Qatag'on siyosati yillarida jamiyatning turli qatlam vakillari ta'qibga uchragan. Ayniqsa, xalqni ma'rifatga, ilimga va milliy o'zlikni anglashga chorlagan ziyolilar og'ir ta'qib ostida qolgan. Ularning orasida jadidchilik harakati vakillari, adiblar, olimlar, o'qituvchilar, davlat va jamoat arboblari bo'lgan.

Qatag'on qurbonlari tarixini o'rganishning ahamiyati davlat darajasida ham e'tirof etilgan. Xususan, qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining vazifalari qatorida mustabid tuzum davridagi qatag'on siyosatining sabablari va oqibatlarini o'rganish, qatag'on qurbonlarining hayoti va faoliyatini tadqiq etish hamda ularning ijodiy merosini to'plash va nashrga tayyorlash belgilangan. Shu nuqtai nazardan, qatag'on qurbonlari hayoti va faoliyatini o'rganish tarixiy adolatni tiklash bilan bir qatorda, milliy o'zlikni anglash va tarixiy xotirani mustahkamlash uchun ham muhim ahamiyatga ega.²⁴

O'zbekiston tarixidagi qatag'onlar masalasi XX asrning siyosiy jarayonlari bilan chambarchas bog'liq. Sovet hokimiyati o'rnatilgach, jamiyat hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarida markazlashgan boshqaruv tizimi shakllandi. Ushbu jarayon milliy manfaatlarni ilgari surgan, mustaqil fikrlaydigan yoki mavjud siyosiy tizimga tanqidiy munosabat bildirgan shaxslarning ta'qib qilinishiga olib kelgan. Qatag'on siyosati birgina 1937-1938-yillar bilan cheklanib qolmagan. Biroq aynan shu yillar siyosiy repressiyalarning eng keskin bosqichlaridan biri bo'ldi. O'zbekistonda 1937–1938-yillardagi ommaviy qatag'onlar davrida minglab insonlar hibsga olingan, qamoq yoki boshqa jazolarga duchor etilgan. O'zbekiston Milliy axborot agentligi ma'lumotlarida 1937-yil 10-avgustidan 1938-yil 1-yanvarigacha bo'lgan davrning o'zida O'zbekistonda 10 700 kishi qamoqqa olingani, ulardan 3 613 nafari otuvga, 7 087 nafari esa uzoq muddatli qamoq jazosiga hukm qilingani qayd etiladi. Bu raqamlar qatag'on siyosatining ko'lami naqadar katta bo'lganini ko'rsatadi. Muhimi, ta'qiblar faqat siyosiy lavozimdagi shaxslar bilan chegaralanmagan. Ziyolilar, diniy ulamolar, o'qituvchilar, adiblar, harbiylar, davlat va jamiyat arboblari ham qatag'on siyosatining turli shakllariga duch kelgan. Masalan, 1937-yil dekabrda "Uchlik" qarorlari bilan hukm qilingan minglab shaxslar orasida imom, eshon, mulla, boshqa diniy xizmatchilar

²⁴O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-noyabrdagi 936-sonli qarori.





ham bo'lgan. Qatag'onlarning yana bir muhim jihati shundaki, insonlarni jazolash uchun ularga ko'pincha siyosiy xarakterdagi ayblovlar qo'yilgan. "Millatchilik", "Aksilinqilobiy faoliyat", "Sovetlarga qarshi tashviqot" kabi ayblovlar turli davrlarda shaxslarni ta'qib qilish vositasiga aylangan. Shu sababli qatag'on tarixini o'rganishda faqat hukm yoki jazo faktning o'zini emas, balki insonning qanday faoliyat olib borгани va unga qanday ayblovlar qo'yilganini ham tahlil qilish zarur.

XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakati xalqning ma'rifiy va madaniy rivojlanishiga katta e'tibor qaratdi. Jadidlar yangi usuldagi maktablar ochish, ta'lim sifatini yaxshilash, matbuot va adabiyotni rivojlantirish, jamiyatning siyosiy va madaniy ongini rivojlantirishga intildilar. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon va boshqa ko'plab ziyolilar xalqni ilm-ma'rifatga chorlagan. Ularning faoliyatida ta'lim, milliy o'zlik va jamiyat tarqqiyoti masalalari muhim o'rin egallagan. Jadidlarning asosiy maqsadlarini faqat siyosiy qarshilik bilan izohlash to'g'ri bo'lmaydi. Ularning maktab, matbuot, adabiyot, teatr va ma'rifat sohasidagi faoliyati xalqning bilim darajasini oshirish va jamiyatni yangilashga qaratilgan edi. Biroq keyinchalik mustabid siyosiy tizim sharoitida milliy ziyolilarning qarashlari shubha ostiga olinib, ularning ko'pchiligi turli siyosiy ayblovlar bilan ta'qib qilindi. Natijada millatning ilmiy, adabiy va ma'rifiy salohiyatini shakllantirgan ko'plab vakillar qatag'on qurboniga aylandi. Rasmiy manbalarda ham 1937-1938-yillardagi "Katta terror" davrining asosiy qurbonlari orasida jadidlar va ularning maslakdoshlari bo'lgani qayd etiladi. Qatag'on siyosatining oqibatlarini faqat qamoqqa olingan yoki qatl etilgan insonlar bilan o'lchab bo'lmaydi. Bu jarayon oilalar, ilm-fan, adabiyot, ta'lim va umuman jamiyatning ma'naviy hayotiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Qatag'on qurbonlarining oila a'zolari ham turli ijtimoiy bosim va qiyinchiliklarga duch kelgan. Natijada ayrim oilalar parokanda bo'lgan, farzandlar otasidan yoki yaqinlaridan ayrilgan. Rasmiy manbalarda ham qatag'onlar natijasida ko'plab oilalar xonavayron bo'lgani va bolalar yetim qolganligi qayd etiladi. Bundan tashqari, ziyolilarning ta'qib qilinishi jamiyatning tabiiy ilmiy va ma'rifiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bir avlod vakillarining yo'qotilishi natijasida ularning ilmiy, adabiy va pedagogik tajribasini keyingi avlodga to'liq yetkazish imkoniyati cheklangan. Shu sababli qatag'on tarixini faqat "O'tmishda sodir bo'lgan siyosiy voqealar" sifatida ko'rish yetarli emas. Uning oqibatlari xalqning tarixiy xotirasi, milliy madaniyati va ma'naviy taraqqiyotida ham o'z aksini qoldirgan.

Jadidlarning ta'limni yangilashga qaratilgan harakatlarida natijasida yangi usul maktablari rivojlandi. Matbuot orqali jamiyatdagi muammolar muhokama qilindi, adabiyot orqali milliy ong va ijtimoiy fikr rivojlandi. Shu jihatdan qatag'on qurbonlarining faoliyatini o'rganish ularning fojiali taqdirinigina emas, balki ular amalga oshirgan bunyodkorlik ishlarini ham yoritishni talab qiladi.

XX asr boshlarida Turkiston hududida yuz bergan milliy uyg'onish jarayonida ma'rifatparvar ziyolilarning faoliyati alohida o'rin egallaydi.





Mahmudxo'ja Behbudiy – Turkiston jadidchilik harakatining yirik namoyandasi, pedagog ma'rifatparvar, dramaturg, noshir, din va jamoat arbobi. U 1875-yil 20-yanvarda Samarqand viloyatida tug'ilgan. Behbudiy yangi usul maktablarini rivojlantirish, milliy matbuotni shakllantirish va xalqni ma'rifatga chorlash ishlariga katta hissa qo'shgan. U "Samarqand" gazetasi va "Oyna" jurnalini tashkil etgan hamda o'zbek dramaturgiyasi rivojiga ham katta hissa qo'shgan, 1919-yilda Buxoro hududida qo'lga olinib, qatl etilgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov – Toshkent jadidchilik harakatining yirik vakili, pedagog, muharrir va jamoat arbobi. U Toshkentning Darxon mahallasida tug'ilgan. 1901-yilda yangi usuldagi maktab tashkil etib, ta'lim tizimini yangilashga katta e'tibor qaratgan. Shuningdek, "Xurshid" gazetasi asoschisi va bir qancha darslik muallifidir. Munavvarqori 1929-yilda nohaq millatchilikda ayblanib, qamoqqa olinadi. Moskva shahridagi Butirka qamoqxonasida qatl qilingan va Vagankova qabristoniga dafn qilingan.

Abdurauf Fitrat – o'zbek tarixchisi, filolog, tarjimon, yozuvchi, zamonaviy o'zbek tili va adabiyoti asoschilaridan biri, birinchi o'zbek professori. U bir qator darsliklar tuzgan, "Chig'atoy gurungi" nomli ijtimoiy-adabiy tashkilot tuzib, yosh avlodni millatparvarlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga kirishdi. Bundan tashqari "Tong" jurnaliga asos solgan. Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat 1938-yilda Toshkent shahrining hozirgi Yunusobod tumani Bo'zsuv qirg'og'idagi qatlgohda otib o'ldirilgan.

Abdulla Qodiriy – o'zbek milliy romanchiligining asoschilaridan biri, yozuvchi, publistist va tarjimon. U 1894-yilda Toshkentda tug'ilgan. Qodiriy o'zining "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" kabi romanlari orqali o'zbek adabiyotiga katta hissa qo'shgan. Uning dastlabki ijodiy faoliyati jadidchilik muhiti bilan bog'liq bo'lgan. Qodiriy xibsga olingach, asarlari "Zararli" sanalib o'tda yoqildi, kutubxonalardan yo'qotildi, ularni o'qish ta'qiqlandi. Abdulla Qodiriy Cho'lpon va Fitrat kabi qatl etildi.

Abdulhamid Cho'lpon – shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon, jadid adabiyotining yirik namoyandasi. U Andijonda tug'ilgan. Cho'lpon o'z ijodida milliy ozodlik, inson erkinligi, ma'rifat va milliy o'zlik masalalarini yoritgan. Uning "Uyg'onish", "Buloqlar", "Tong sirlari", "Soz", kabi she'riy to'plamlari hamda "Kecha va kunduz" romani o'zbek adabiyotining muhim namunalariandir. Cho'lpon "Turon" teatrda direktor hamda SSSR XKS va Sharq xalqlari markaziy nashriyotida tarjimonlik faoliyatida ishtirok etgan. 1938-yilda Bo'zsuv bo'yida qatl etilgan.

Usmon Nosir – qatag'on davrining yosh va iste'dodli shoirlaridan biri. 1912-yil Namangan shahrida tavallud topgan. U Pushkin va Lermontov asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. "Quyosh bilan suhbat", "Traktorobod", "Safarbar satrlar" kabi she'riy to'plamlari bilan tanilgan. 1937-yilda shoir "Xalq dushmani" sifatida hibsga olinib sudlanadi va avval Zlatoust qamoqxonasiga, so'ngra Vladivostok va Magadan lagerlariga joylashtiriladi. 1940-yilda Usmon Nosir Magadan qamoqxonasidan Iosif Stalin nomiga ariza yuboradi va unda uning "Ishi" ni qayta ko'rib chiqishini so'raydi. Bu ariza Iosif Stalin, Lavrentiy Beriya tomonidan ko'rib chiqildi va ular tomonidan ma'qullandi. Usmon Nosir begunoh deb topiladi va reabilitatsiya qilinadi. Ammo shoir reabilitatsiya qilingunga qadar vafot etadi.





Yuqoridagi shaxslarning hayoti va faoliyatiga nazar tashlaganda, milliy uygʻonish jarayoni faqat bitta soha bilan chegaralanmaganini koʻrish mumkin. Behbudiy va Munavvarqori taʼlim va matbuot sohasida, Fitrat ilmiy, adabiy va siyosiy faoliyatda, Qodiriy va Choʻlpon adabiyotda, Usmon nosir sheʼriyat va tarjimonlikda faoliyat olib borgan. Ularni birlashtirib turuvchi jihatlardan biri xalqning maʼrifiy va madaniy rivojiga xizmat qilishga intilish boʻlgan.

Mustaqillik yillarida qatagʻon qurbonlari nomini tiklash va ularning tarixiy merosini oʻrganishga katta eʼtibor qaratildi. Qatagʻon qurbonlari xotirasi davlat muzeyining tashkil etilishi ham tarixiy xotirani tiklash jarayonining muhim koʻrinishidir. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq Toshkent shahrida Qatagʻon qurbonlari xotirasi muzeyi 2002-yil 31-avgustda – mamlakatda birinchi marta Qatagʻon qurbonlarini yod etish kuni nishonlangan kunda ochilgan.

Muzeyning tashkil etilishi qatagʻon tarixini faqat ilmiy tadqiqotlar doirasida emas, balki keng jamoatchilikka yetkazish uchun ham muhim qadam boʻldi. Muzey ekspozitsiyalarida mustamlakachilik va sovet totalitar tuzumi davrida Oʻzbekiston hududida sodir boʻlgan siyosiy qatagʻonlar, qatagʻon qurbonlarining hayoti va faoliyati bilan bogʻliq hujjatlar hamda tarixiy materiallar namoyish etiladi. Muzey faoliyatining asosiy yoʻnalishlaridan biri qatagʻon siyosatining sabab va oqibatlarini ilmiy jihatdan oʻrganish, qatagʻon qurbonlarining hayoti va faoliyatini tadqiq qilish hamda ularning ilmiy, adabiy va ijodiy merosini toʻplash va nashr etishdan iborat. Shu jihatdan muzey oddiy tarixiy eksponatlar saqlanadigan maskan emas, balki tarixiy xotirani shakllantirish, ilmiy izlanishlarni rivojlantirish va yosh avlodni tarixiy voqealar haqida xolis tasavvurlar bilan tanishtirishga xizmat qiluvchi ilmiy-maʼrifiy muassasa sifatida namoyon boʻladi.

Tarixiy xotirani abadiylashtirishda Qatagʻon qurbonlarini yod etish kunining ham alohida ahamiyati bor. Oʻzbekistonda 31-avgust Qatagʻon qurbonlarini yod etish kuni sifatida belgilanib, har yili ushbu sana munosabati bilan turli xotira va maʼrifiy tadbirlar oʻtkaziladi. Mazkur sana yosh avlodga tarixiy voqealar haqida maʼlumot berish va tarixiy xotirani mustahkamlashga xizmat qiladi. Qatagʻon qurbonlarini yod etishning mazmuni faqat marosim bilan chegaralanmasligi kerak. Ularning ilmiy, adabiy va maʼrifiy merosini oʻrganish, asarlarni nashr etish va ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish xotirani saqlashning yanada samarali shakllaridan biridir.

2020-yil 8-oktabrdagi Prezident farmoni bilan qatagʻon qurbonlari xotirasini tiklash va tarixiy adolatni taʼminlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan vazifalar belgilandi. Mazkur hujjatda qatagʻon qurbonlari nomini aniqlash, ularni hayot tarzi va ilmiy faoliyatini oʻrganish hamda tarixiy xotirani tiklashga doir chora-tadbir nazarda tutilgan. Tarixiy xotirani faqat arxiv hujjatlari yoki muzey eksponatlarida saqlab qolmasdan, taʼlim va ilmiy tadqiqotlar orqali ham avlodlardan avlodga oʻtkazish muhim sanaladi.

Qatagʻon qurbonlari xotirasi davlat muzeyining ahamiyatini uning nomi bilangina emas, balki unda jamlangan tarixiy materiallar orqali ham anglash mumkin. Muzeyda qatagʻon siyosatiga oid hujjatlar, fotosuratlar, ashyoviy dalillar, kitoblar va boshqa tarixiy manbalar





saqlanadi. Ular orqali o'sha davrda sodir bo'lgan voqealar, qatag'on qilingan shaxslar va ulaning faoliyati haqida tasavvur hosil qilishi mumkin. Muzeyning joylashgan hududi ham uning mazmunini yanada chuqurlashtiradi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, ushbu hudud XX asrning 20-yillaridan Ikkinchi jahon urushi boshlanguniga qadar sovet davlatining jazo organlari tomonidan qatl joyi sifatida foydalanilgan. Toshkentda otib tashlangan qatag'on qurbonlarining bir qismi shu hududdagi sobiq qatl joylariga dafn qilingan. Shu sababli muzey va "Shahidlar xotirasi" majmuasi tarixiy xotiraning moddiy va ma'rifiy markazi sifatida shakllangan. Muzey ekspozitsiyalarining yana bir muhim jihati shundaki, unda qatag'on tarixini faqat bitta davr bilan chegaralab bo'lmaydigan jarayon sifatida ko'rish imkoniyati mavjud. Masalan, Jizzaxdagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi ekspozitsiyasida milliy uyg'onish harakati, Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi, 1929-1936-yillardagi qatag'onlar, 1937-1938-yillardagi "Katta qirg'in", 1940-1950-yillardagi siyosiy qatag'onlar hamda 1980-yillardagi "Paxta ishi" bilan bog'liq voqealar alohida yo'nalishlarda yoritilgan.

Qatag'on tarixining biz bilmagan, kam yoritilgan jihatlari ham mavjud. Qurbonlar haqida so'z borganda, odatda yozuvchi, shoir va jadidlar nomi ko'proq tilga olinadi. Ammo qatag'on siyosatiga uchragan insonlar orasida turli kasb egalari ham bo'lgan. Masalan, muhandislar, suv xo'jaligi mutaxassislari, harbiylar, davlat xizmatchilari va boshqa soha vakillari uchraydi. Bu esa qatag'on siyosati jamiyatning faqat ma'rifat va adabiyot sohasiga emas, balki mamlakatning turli ijtimoiy va iqtisodiy yo'nalishlariga ham ta'sir qilganini ko'rsatadi. Bunga Muhammad Amunaddinov misol bo'la oladi. U 1873-yilda Xonqada tug'ilgan bo'lib, Yevropada irrigatsiya bo'yicha ta'lim olgan dastlabki mahalliy mutaxassislardan biri bo'lgan. Xorazmda suv xo'jaligi ishlarini boshqargan, keyinchalik mirob va gidrotexnik sifatida faoliyat yuritgan. 1937-yilda qamoqqa olinib, 10 yil mehnat-tuzatish lageriga hukm qilingan va qamoqda vafot etgan. 1990-yil 13-martda oqlangan. Shomansur Alixo'jayev. U davlat boshqaruvi tizimida faoliyat yuritgan va O'zbekiston suv xo'jaligi boshqarmasiga rahbarlik qilgan. 1937-yilda hibsga olingan va 1938-yilda otuvga hukm qilinib, hukm shu kunning o'zida ijro etilgan. Keyinchalik u ham rehabilitatsiya qilingan.

Qatag'on qurbonlari taqdiridagi yana bir muhim bosqich ularning nomini oqlash, ya'ni rehabilitatsiya qilish jarayonidir. Qizig'i shundaki, qatag'on qilinganlarning barchasi bir vaqtda oqlanmagan. Ayrim insonlarning ishlari bir necha o'n yildan keyin qayta ko'rib chiqilgan. 1956-yilda Sovet Ittifoqida qatag'on qilinganlarni rehabilitatsiya qilish bo'yicha maxsus komissiya tuzildi. Uning tarkibiga O'zbekistondan ham vakillar, jumladan, N.A.Muhitdinov va akademik, yurist Xadicha Sulaymonova kiritilgan. Ular O'zbekiston hududida qatag'on qilingan shaxslarning ishlarini qayta ko'rib chiqish jarayonida ishtirok etgan. Biroq ushbu jarayon barcha qatag'on qurbonlarining masalasini to'liq hal qilib bermadi. Ayrim shaxslar keyingi o'n yilliklarda ham oqlanmay qoldi. Masalan, Xorazmda faoliyat yuritgan Nazir Sholikorov 1938-yilda otuvga hukm qilingan. Uning ishi 1958-yilda qayta ko'rib chiqilib, SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi tomonidan to'liq oqlangan. Bu holat qurbonlarni oqlash jarayoni uzoq va bosqichma-bosqich kechganini ko'rsatadi. Ba'zi insonlar



hayotlik paytida o'z nomini oqlash imkoniga ega bo'lmagan. Ularning oqlanganini esa farzandlari yoki keyingi avlodlari ko'rgan.

Bizda ayrim qurbonlar nega juda kech oqlangan degan savol tug'ilishi mumkin. Buning sabablaridan biri qatag'on davrida tuzilgan jinoyat ishlarining uzoq vaqt yopiq holda saqlanganidir. Shaxsga qo'yilgan ayblovlar, tergov materiallari va sud hujjatlari arxivlarda qolgan. Keyinchalik ushbu hujjatlarni qayta o'rganish orqali ilgari berilgan hukmlarning asoslilik tekshirilgan. Eng qiziq tomoni shundaki, bu jarayon yaqin yillargacha davom etib kelmoqda. 2020-yildagi farmoyish asosida qatag'on qurbonlari hayotini yanada chuqur o'rganish, ularning nomlarini tiklash bo'yicha Respublika ishchi guruhi tashkil etilgan. Keyingi yillarda Oliy sud tomonidan ilgari reabilitatsiya qilinmay qolgan shaxslarning jinoyat ishlari ham qayta ko'rib chiqildi. Masalan, 2024-yil may oyida Oliy sud 11ta jinoyat ishi bo'yicha 198 nafar shaxsga nisbatan oqlov hukmlari chiqarilgan. 2026-yil may oyida esa yana 161 nafar qatag'on qurboniga oid oqlov hukmlari e'lon qilindi. Oliy sud ma'lumotlariga ko'ra, keyingi yillardagi ishlar natijasida jami 1236 nafar vatandosh reabilitatsiya qilinib, oqlandi. Bu raqamlar qatag'on tarixi hali to'liq o'rganib bo'lingan mavzu emasligini ko'rsatadi. Oradan qariyb bir asr o'tgan bo'lsa ham, arxiv hujjatlari asosida yangi ma'lumotlar aniqlanmoqda va ayrim insonlarning nomlari qayta tiklanmoqda.

Birgina arxiv hujjati u insonning kim bo'lgani, nima bilan shug'ullangani va nima sababdan jazolanganini aniqlashga yordam beradi. Shuning uchun qatag'on tarixini o'rganish faqat o'tmishni eslash emas, balki tarixiy haqiqatni hujjatlar asosida tiklash jaroyinidir.

Qatag'on qurbonlari merosini o'rganishning yana bir muhim tomoni – tarixiy adolat tushunchasini anglashdir. Inson haqida chiqarilgan hukm yoki unga berilgan siyosiy baho doimo tarixiy haqiqatning o'zi bo'lavermaydi. Vaqt o'tishi bilan yangi hujjatlar topilishi, avvalgi qarashlar qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Shu bois tarixni o'rganishda, manbaga tayanish, turli ma'lumotlarni solishtirish va xolis ilmiy xulosa chiqarish muhim ahamiyatga ega. Bu masala huquqiy jihatdan ham qiziqdir. Qatag'on qurbonlarining taqdirida insonning huquqlari, qonuniylik, adolat va sud jarayonlarining ahamiyati kabi masalalarni ko'rish mumkin. Shu jihatdan qatag'on tarixi nafaqat tarixchilar va adabiyotshunoslar, balki huquqshunoslar uchun ham o'rganishga arzigulik mavzudur.

Bugungi yosh avlod oldida turgan vazifa faqat qatag'on qurbonlari nomlarini bilish bilan cheklanmaydi. Ularning asarlarini o'qish, ilmiy faoliyatini tadqiq etish, tarixiy hujjatlarni o'rganish va bu bilimlarni boshqalarga yetkazish orqali tarixiy xotiraning davomiyligini ta'minlash mumkin.

Qatag'on qurbonlari tarixining bugungi avlodga beradigan eng katta saboqlaridan biri shundaki, ilm, ma'rifat va tarixiy xotira ma'naviy boyligidir. Ularni asrash esa faqat tarixchilarning emas, butun jamiyatning vazifasidir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, qatag'on tarixi – xalqimiz eng murakkab va og'riqli davrlardan biridir. Qatag'on siyosati natijasida ko'plab ziyolilar, ma'rifatparvarlar, olimlar, yozuvchilar, shoirlar va davlat arboblari ta'qib qilindi. Ularning ayrimlari qamoqqa olindi, surgun qilindi yoki hayotidan ayrildi. Ular o'z davrida xalqni ilmga, ma'rifatga,





savodxonlikka va taraqqiyotga chorlagan, milliy madaniyat va tafakkur rivojiga munosib hissa qo'shgan shaxslar edi. Bu mavzuga huquqiy jihatdan qaraydigan bo'lsak, avvalo, inson huquqlari, qonun ustuvorligi va adolatli sudlovning naqadar muhim ekanida namoyon bo'ladi. Insonning aybi qonuniy tartibda isbotlanishi, uning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishi, sud orqali himoyalaniş huquqi ta'minlanishi huquqiy davlatning asosiy shartlaridandir.

Bugungi kunda yashash huquqi insonning ajralmas huquqi hisoblandi va O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi ta'qiqlanadi. Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga va qonunga asoslangan holda yo'l qo'yilishi qat'iy belgilab qo'yilgan.²⁵

Shu sababli qatag'on qurbonlarini xotirlash faqat o'tmishni eslash emas. Bu – inson huquqlari va qonuniylikning qadriga yetish, tarixiy xatolardan saboq olish va adolat tamoyillarini kelajak avlodga yetkazishdir. Qatag'on qurbonlarining nomi va merosi esa milliy tariximizning unutilmas qismi sifatida saqlanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi" rasmiy portali.
3. LexUZ- O'zbekiston Respublikasi milliy huquqiy axborot portali.

²⁵ 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan Konstitutsiyasi (25-27-moddalar)